AQSH VA XITOYNING JANUBI-SHARQIY OSIYODAGI GEOSIYOSIY RAQOBATINING JANUBIY KOREYA TASHQI SIYOSATIGA TA’SIRI

Xatamjonov Omadbek
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola AQSh va Xitoyning Janubiy-sharqiy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy raqobatining Janubiy Koreyaning tashqi siyosatiga ta’sirini tahlil qiladi. JShO mamlakatlarining hedging strategiyasi – davlatning bir tomonga bog‘lanib qolmasdan, bir nechta parallel aloqalarni saqlab, xavfni kamaytirishini, ASEAN markaziy rolini va Janubiy Koreyaning “Yangi Janubiy siyosati” hamda “Hind-Tinch okeani strategiyasi” orqali diversifikatsiya harakatlarini ko‘rib chiqadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqobat Janubiy Koreya uchun iqtisodiy imkoniyatlar - savdo, investitsiyalar, ta’minot zanjirlari diversifikatsiyasi bilan birga xavfsizlik xatarlarini keltirib chiqaradi. Masalan, Janubiy Xitoy dengizi, proksi bosimi, milliy birlashuv murakkabligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Muhokamada Janubiy Koreyaning o‘rta kuch sifatida ASEAN bilan chuqurroq xavfsizlik hamkorligi orqali strategik avtonomiyani mustahkamlashi ko’rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: JShO, ASEAN, hedging strategiyasi, Quad, AUKUS, IPEF - Indo-Pacific Economic Framework for Prosperity

KIRISh Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida AQSh va Xitoy o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat global va mintaqaviy darajada asosiy omilga aylandi. Janubiy-sharqiy Osiyo bu raqobatning markaziy maydonchasiga aylangan, chunki mintaqa strategik dengiz yo‘llari, iqtisodiy o‘sish va ASEAN markazi bilan ajralib turadi. AQShning “Erkin va ochiq Hind-Tinch okeani” strategiyasi, Quad va AUKUS (Avstraliya, Buyuk Britaniya, Qo‘shma Shtatlar) kabi minilateral tuzilmalar orqali Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi va harbiy modernizatsiyasiga qarshi turishi JShO mamlakatlarini ikki kuch o‘rtasida tanlov qilishga majbur qilmoqda. Bu raqobat nafaqat iqtisodiy va harbiy sohalarda, balki texnologiya, ta’minot zanjirlari va normativ tartibda ham namoyon bo‘lmoqda. Janubiy Koreya uchun bu vaziyat o‘ta murakkab: u AQShning asosiy ittifoqchisi bo‘lib, xavfsizlik kafolati va harbiy hamkorlikka tayanadi, ammo Xitoy bilan iqtisodiy aloqalari chuqur, raqamlarga qaraydigan bo‘lsak, savdo hajmi 2020-yilda 240 milliard dollardan oshgan [1]. Shu bilan birga, Janubiy Koreyaning “Yangi Janubiy siyosati” va 2022-yilgi “Hind-Tinch okeani strategiyasi” ASEAN bilan aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, Shimoliy Koreya va Xitoyga qaramlikni kamaytirishni maqsad qiladi. Koreya universitetining xalqaro munosabatlar bo‘yicha professori Sung Hak Kangning tahliliga ko‘ra, Janubiy Koreya tashqi siyosatining asosiy dilemmasi davlat xavfsizligini ta’minlash va milliy birlashuv maqsadini uyg‘unlashtirishdir - bu ikki maqsad ko‘pincha bir-biriga zid keladi, chunki buyuk kuchlar bosimi Koreya yarim orolini proksi maydonchaga aylantirishi mumkin [2].

Ushbu maqolada aynan Janubi-sharqiy Osiyodagi AQSh-Xitoy raqobatining Janubiy Koreyaga ta’siri tahlil qilinadi: bu raqobat Janubiy Koreyaning xavfsizligi, iqtisodiyotini qanday o‘zgartirmoqda va uning tashqi siyosat strategiyasiga qanday ta’sir qilishi ko‘riladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, 2022-yildan keyingi global voqealar - Rossiya-Ukraina urushi, ta’minot zanjirlari inqirozi, AUKUS va IPEF kabi tashabbuslar raqobatni yanada

keskinlashtirdi. Janubiy Koreya kabi o‘rta kuchlar uchun hedging strategiyasi va ASEAN bilan hamkorlik bu raqobatda muhim rol o‘ynaydi. Maqola Li Jehyon va Dr. Choi Yonjungning qalamiga mansub tadqiqotlar, hamda Indoneziya Strategik va Xalqaro Tadqiqotlar Markazining Janubiy Koreya-ASEAN xavfsizlik hamkorligi haqidagi tadqiqotlariga asoslanib, siyosiy-ilmiy tahlil qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolada taqqoslash tahlil usuli orqali AQSh va Xitoyning Janubiy Sharqiy Osiyodagi strategiyalari solishtirilib, geosiyosiy tahlil yordamida mintaqaning strategik ahamiyati va kuchlar muvozanati o‘rganiladi. Tadqiqot davomida “case study” usuli asosida THAAD tizimi joylashtirilishi va Janubiy Xitoy dengizi mojarolari misol sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, strukturaviy realizm yondashuvi orqali xalqaro tizimdagi kuchlar raqobati va uning Janubiy Koreya tashqi siyosatiga ta’siri izohlandi.

NATIJALAR


1

ilova




Janubiy Koreya eksportida Xitoy va AQSHning ulushi [3]

2-ilova



ASEAN mamlakatlarining AQSh va Xitoyga nisbatan munosabati [4]

3-ilova



AQSh va Xitoyning ASEANga investitsiya ta’siri solishtirmasi [5]

AQShning strategiyasi “Erkin va ochiq Hind-Tinch okeani” tamoyiliga asoslanadi. Maqsad - mavjud qoidalarga asoslangan xalqaro tartibni saqlash, erkin savdo, dengiz erkinligi va shaffoflikni himoya qilish. Bu strategiya minilateral tuzilmalar, Dengizda erkin harakatlanish operatsiyalari qoidalariga asoslangan diplomatiya orqali amalga oshirilmoqda.

AQSh mintaqada Xitoyning revisionist - tartibni o‘zgartiruvchi harakatlarini cheklashni ko‘zlaydi. Lekin Tramp hokimyatining ikkinchi yilidan AQSh tashqi siyosati keskin burildi. Xavfsizlik va harbiy vositalar bo‘yicha solishtiradigan bo’lsak, AQSh “navigatsiya erkinligi operatsiyalari”, Avstraliya va Buyuk Britaniya bilan yadro quvvatli suv osti kemalari, Quad va IPEF orqali harbiy muvozanatni kuchaytirdi lekin, hozirgi kunda AQShning asosiy e’tibori Yaqin Sharqqa yo’naltirilishi Janubiy-Sharqiy Osiyodagi vaziyatni tubdan o‘zgartirib, siyosiy elitalarda bo‘linishlar keltirib chiqardi. Bu jarayonda Xitoy Janubiy Xitoy dengizida harbiy faollikni oshirmoqda. 2025-yilda 163 ta operatsiya, kuniga o‘rtacha 241 ta maritime militia kemasi joylashtirilgan. Sun’iy orollar, harbiy bazalar va “kulrang zona” taktikasi qo‘llanilmoqda.[7] Geosiyosiy tahlil qiladigan bo’lsak, Janubiy Sharqiy Osiyo, xususan Janubiy Xitoy dengizi hududi zamonaviy xalqaro tizimda strategik markaz sifatida shakllangan bo‘lib, uning geosiyosiy ahamiyati bir vaqtning o‘zida iqtisodiy, harbiy va geostrategik omillar bilan belgilanadi. Ushbu hudud global savdo tizimining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Xususan, yiliga 3 trillion dollardan ortiq savdo oqimi aynan shu dengiz orqali o‘tadi va bu uni Sharqiy Osiyo, Yevropa hamda Yaqin Sharq o‘rtasidagi asosiy transport yo‘liga aylantiradi [8]. Ayniqsa Malakka bog‘ozi orqali o‘tuvchi yo‘nalish Xitoy uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uning energiya importining katta qismi aynan shu yo‘l orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, bu hudud ustidan nazorat o‘rnatish masalasi nafaqat hududiy, balki global iqtisodiy ustunlik bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Geosiyosiy tahlilning muhim jihatlaridan biri bu hududning harbiy-strategik ahamiyatidir. Alfred Tayer Mahan tomonidan ishlab chiqilgan dengiz kuchlari nazariyasiga ko‘ra, dengiz yo‘llari ustidan nazorat global siyosiy ustunlikni belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, AQSh o‘z strategiyasida dengiz hududlarini ochiq va erkin saqlashga alohida urg‘u beradi. Bu siyosat “navigatsiya yo’llarini erkin boshqarish” konsepsiyasi orqali amalga oshirilib, xalqaro suv hududlarida erkin harakatlanish huquqini nazorat qilishga qaratilgan [9]. 28-fevral kuni boshlangan Isroil-AQSh va Eron urushi shuning natijasida keli chiqqan desak ham bo‘ladi, ya’ni AQSh Xitoyni shu yo‘l bilan cheklashga harakat qiladi. Xitoy esa ushbu hududni o‘zining strategik xavfsizlik zonasi sifatida ko‘rib, uni nazorat qilishga intilmoqda. Bu esa A2/AD strategiyasi orqali amalga oshiriladi, ya’ni boshqa davlatlarning harbiy kuchlarini hududga kirishini cheklashga qaratilgan siyosatdir. [10] Mintaqaning yana bir muhim geosiyosiy xususiyati uning “birinchi orol zanjiri” doirasida joylashganligidir. Ushbu zanjir Yaponiya, Tayvan va Filippin kabi davlatlarni o‘z ichiga oladi,bu hududlarda esa AQSh harbiy bazalarga. Natijada Xitoyni Tinch okeanidan qisman ajratib turuvchi tabiiy-geosiyosiy to‘siq vazifani bajaradi. AQSh aynan shu hududda o‘z harbiy ittifoqlari va bazalari orqali strategik ustunlikni saqlab qolishga harakat qilmoqda. Bu esa Nikolas Spaykman tomonidan ilgari surilgan “rimland nazariyasi”ga mos keladi, ya’ni qirg‘oq hududlarini nazorat qilish orqali global siyosiy ustunlikka erishish mumkin. Xitoy esa, aksincha, ushbu geosiyosiy “halqa”ni yorib o‘tish va ochiq okeanga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga intilmoqda. Shuningdek, Xitoy tomonidan amalga oshirilayotgan sun’iy orollar qurilishi va ularni harbiylashtirish siyosati mintaqadagi kuchlar muvozanatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Spratly orollari hududida qurilgan infratuzilma - aerodromlar, radar tizimlari va raketa joylashuvlari - Pekinning hududiy da’volarini amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu yondashuv geosiyosatda “fait accompli”, ya’ni “amalda fakt yaratish” strategiyasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu strategiya orqali Xitoy asta-sekin, lekin barqaror tarzda hududiy nazoratni kuchaytirib bormoqda. Bundan tashqari, Xitoyning “kulrang zona” taktikasi ham geosiyosiy muhitni murakkablashtiruvchi omillardan biridir. Bu taktika to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy to‘qnashuvsiz,

ammo doimiy bosim orqali raqibni cheklashga qaratilgan bo‘lib, dengiz militsiyasi, qirg‘oq qo‘riqlash kuchlari va fuqarolik kemalari orqali amalga oshiriladi. Natijada mintaqada past intensivlikdagi, ammo uzluksiz davom etuvchi geosiyosiy ziddiyat shakllanmoqda.

Umuman olganda, Janubiy Xitoy dengizi nafaqat hududiy nizolar markazi, balki global kuchlar raqobatining asosiy maydoniga aylangan. Bu yerda AQSh tomonidan ilgari surilayotgan ochiq dengizlar konsepsiyasi bilan Xitoyning hududiy nazoratni kengaytirishga qaratilgan strategiyasi o‘rtasida fundamental qarama-qarshilik mavjud. Mazkur qarama-qarshilik nafaqat mintaqaviy xavfsizlikka, balki butun xalqaro tizimdagi kuchlar muvozanatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan bu hududga bog’liqlikka ega Janubiy Koreyaga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. AQShning Janubiy Koreyaga joylashtirilgan THAAD tizimi - bu yuqori balandlikdagi raketalarni zararsizlantirish tizimi bo‘lib, asosan ballistik raketalarni atmosfera yuqori qatlamida yo‘q qilishga qaratilgan. Tizim mobil bo‘lib, tezkor tarzda joylashtirilishi va harbiy operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. THAAD tizimining asosiy strategik maqsadi mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdir. U Shimoliy Koreyaning ballistik raketalari kabi tahdidlariga qarshi ishlatiladi, shuningdek, AQSh ittifoqchilarini himoya qilish va hududiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan. Janubiy Koreyaga tizimni joylashtirish orqali AQSh mintaqadagi strategik mavjudligini mustahkamladi, ammo bu qaror Xitoy tomonidan tahdid sifatida qabul qilindi. Pekin bu holatga diplomatik va iqtisodiy bosim, shuningdek harbiy ko‘rsatkichlarni oshirish bilan javob berdi. THAAD tizimi Janubiy Koreyaga joylashtirilishi bilan mintaqaviy geosiyosiy balansga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bir tomondan, AQSh va Janubiy Koreya ittifoqining strategik mustahkamligi oshdi; boshqa tomondan, Xitoy va Rossiya o‘z hududiy xavfsizligini ta’minlash nuqtayi nazaridan tizimni tahdid sifatida baholadi. Bu esa Janubiy Koreyani “strategik dilemma”ga duchor qildi: xavfsizlikni oshirish zarurati bilan Xitoy bilan iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni saqlash talabi o‘rtasida murakkab balans yuzaga keldi. Texnik jihatdan THAAD tizimi 150 km balandlikgacha uchuvchi raketalarni yo‘q qila oladi va raketa uchirilishi aniqlanganidan keyin bir necha daqiqada reaksiya ko‘rsatadi. Tizimning mobil xususiyati esa uni qisqa vaqt ichida boshqa hududga ko‘chirish imkonini beradi, bu esa mintaqada tezkor strategik javob berish qobiliyatini oshiradi. [11] Ammo, joriy yil boshida boshlangan Amerika boshlab bergan Yaqin Sharqdagi urush sababli bu tizimni Janubiy Koreyadan Yaqin Sharqqa ko‘chirilishi vaziyatni o‘zgartirib yubordi.

Strukturaviy realizm (neorealizm) - bu xalqaro munosabatlar nazariyasidagi asosiy qarash bo‘lib, xalqaro tizimning anarxik tabiati davlatlarning strategik xatti-harakatlarini belgilovchi markaziy omil hisoblanadi. Ya’ni, dunyo mamlakatlari ustidan yagona hokimyat yo’q, shu sababli barcha o’zini doimiy xavf ostida sezadi. Kennet Uoltz bu yondashuvni o‘zining “xalqaro siyosat nazariyalari” asarida bayon etgan bo‘lib, nazariyaga ko‘ra, davlatlar o‘z xavfsizligini maksimal darajada ta’minlashga intiladi va bu ularni ko‘p hollarda raqobat, kuchlarning muvozanati, ittifoq tuzish va harbiy salohiyatni oshirish yo‘nalishlariga yo‘naltiradi. Janubiy Sharqiy Osiyo strategik muhitini strukturaviy realizm kontekstida tahlil qilganda, mintaqaviy kuchlar o‘rtasidagi raqobatning xalqaro tizimning strukturaviy xususiyatidan bevosita kelib chiqqanligi ko‘rinadi. Strukturaviy realizmga ko‘ra, bu hududda davlatlar o‘z xavfsizligini mustahkamlash uchun o‘zaro raqobatlashadi, chunki yuqorida aytib o‘tilganidek xalqaro tizimda markaziy hukumat mavjud emas va davlatlar xavfsizlik tahdidlarini oldini olish uchun o‘z strategiyalarini mustaqil belgilaydi. AQSh va Xitoyning Janubiy Sharqiy Osiyodagi strategiyalari strukturaviy realizm prinsiplariga muvofiq ravishda shakllangan. AQSh global dengiz yo’nalishlarini ochiq saqlash va ittifoqchilarining xavfsizligini kafolatlash strategiyasini ilgari suradi ammo yuqorida aytib o‘tilganidek

bugungi kunda vaziyat o‘zgarmoqda. Bu siyosat uning “Navigatsiya erkinligi operatsiyalari” orqali yaqqol namoyon bo‘ladi, ya’ni xalqaro suv hududlarida harbiy mavjudlikni oshirib, nazoratni faollashtirish orqali kuchlar muvozanatini saqlashga xizmat qiladi [12]. Bu amaliyot strukturaviy realizm nuqtayi nazaridan AQShning o‘z strategik manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan holatidir.

Xitoy esa o‘sib borayotgan global kuch sifatida mintaqada o‘z strategik maqomini kuchaytirishga intiladi. Bu intilish Janubiy Xitoy dengizida sun’iy orollarni harbiylashtirish, radar tizimlarini joylashtirish va dengiz militsiyasi orqali faoliyat yuritish bilan ifodalanadi. Strukturaviy realizm bu holatni shunday izohlaydi: Xitoy o‘z hududiy ta’sirini kengaytirish orqali xalqaro tizimda o‘z salohiyatini oshirmoqchi, shu bilan raqib davlatlarning o‘sish salohiyatini cheklamoqchi va bugungi kunda buni yaxshigina uddalamoqda. Strukturaviy realizm yondashuvi shuningdek, XXR tizimida kuchlar muvozanati tamoyilini aks ettiradi. Kuchlar muvozanati nazariyasiga ko‘ra, agar bir davlat o‘z salohiyatini oshirsa, boshqa davlatlar ham o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun choralar ko‘radi. Masalan, Xitoyning harbiy salohiyatini kuchaytirishi AQSh va uning ittifoqchilarini tashvishga solmoqda va bu hol Janubiy Koreya kabi davlatlarni strategik tanlov oldida qoldirdi: o‘z xavfsizligini oshirish maqsadida AQSh bilan yaqin hamkorlikni davom ettirish, lekin shu bilan birga Xitoy bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni saqlab qolish zarur. Eron bilan bo‘layotgan urush tufayli Janubiy Koreya AQSh bilan hamkorlikni qayta ko‘rib chiqish ehtimoli ham bor, chunki xavfsizligini ishonib topshirgan Janubiy Koreya arab davlatlari bilan ro‘y bergan Eron hujumlaridan va AQSh himoya qila olmaganidan xulosa chiqarishi mumkin. Bu esa Janubiy Koreyada strategik dilemmani yuzaga keltiradi, ya’ni mustaqil strategik qaror qabul qilishga bo‘lgan ehtiyoj bilan o‘z hududiy xavfsizligini ta’minlash uchun tashqi kuchlarga suyanish o‘rtasida murakkab balansni ifodalaydi.

XULOSA Umuman olganda, AQSh va Xitoyning Janubi-Sharqiy Osiyodagi geosiyosiy raqobati Janubiy Koreya tashqi siyosatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rishimiz mumkin. AQSh mintaqada harbiy-siyosiy ittifoqlar va xavfsizlik arxitekturasini mustahkamlash orqali o‘z ta’sirini saqlab qolishga intilsa, Xitoy iqtisodiy vositalar va infratuzilmaviy loyihalar orqali mintaqadagi pozitsiyasini kengaytirmoqda. Ushbu ikki xil strategiya Janubi-Sharqiy Osiyoni global kuchlar raqobatining markaziy hududiga aylantirmoqda. Ammo hozirgi kunda Yaqin Sharqda yuz berayotgan urush fonida AQShning THAAD havo mudofa tizimlarini olib chiqishi turli hil noroziliklar keltirib chiqarmoqda.

Mintaqa xalqaro savdo yo‘llari, dengiz kommunikatsiyalari va strategik resurslarga yaqinligi sababli yuqori ahamiyatga ega. Shu bois, bu hududdagi kuchlar muvozanati nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlik tizimiga ham bevosita ta’sir qiladi. Janubiy Koreya esa aynan shu murakkab geosiyosiy muhitda o‘z manfaatlarini himoya qilishga majbur bo‘lmoqda. Xususan, THAAD tizimi va Janubiy Xitoy dengizi mojarolari, Janubiy Koreyaning tashqi siyosatida muvozanatlash strategiyasi ustuvor ekanligini ko‘rsatdi. THAAD masalasida AQSh bilan xavfsizlik ittifoqi mustahkamlangan bo‘lsa-da, bu qaror Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi. Ammo yuqorida aytib o’tilganidek THAAD tizimlari olib chiqib ketilishi Janubiy Koreya xavfsizligiga bir necha tahdidlarni yuzaga keltiradi. Janubiy Xitoy dengizi bo‘yicha esa Seul ehtiyotkor diplomatik pozitsiyani egallab, ochiq qarama-qarshilikdan qochishga harakat qilmoqda. Janubiy Koreya xalqaro tizimdagi yirik kuchlar o‘rtasidagi raqobat sharoitida “o‘rta kuch” sifatida harakat qilib, xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasida muvozanat topishga intilmoqda. Bu esa uning tashqi siyosatini pragmatik va moslashuvchan qilishga majbur etmoqda. Sirasini

aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, AQSh-Xitoy raqobati kuchayib borar ekan, Janubiy Koreya uchun strategik avtonomiya, tashqi siyosiy diversifikatsiya va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida Seulning tashqi siyosati aynan shu uch omil asosida shakllanishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. China Trade Summary 2020. Retrieved from https://wits.worldbank.org/CountryProfile/en/Country/CHN/Year/2020/Summarytext
2. Korean foreign policy dilemmas. Defining state security and goal of national unification - Sung Hack Kang
3. Janubiy Koreya eksportida Xitoy va AQSHning ulushi. Retrieved from https://www.orfonline.org/public/uploads/editor/20251129111908.png
4. ASEAN mamlakatlarining AQSh va Xitoyga nisbatan munosabati Retrieved from https://public.flourish.studio/visualisation/22336616/thumbnail
5. AQSh va Xitoyning ASEANga investitsiya ta’siri solishtirmasi Retrieved from https://chinaglobalsouth.com/wp-content/uploads/2023/08/US-China-Investments.jpg
6. China’s Import-Export in 2025: Full-Year Data, Trends, and 2026 Outlook Retrieved from https://www.china-briefing.com/news/chinas-import-export-2025/
7. Asia Maritime Transparency Initiative (AMTI), Center for Strategic and International Studies - (CSIS) Retrieved from https://amti.csis.org/all-together-now-chinas-militia-in-2025/?utm
8. How Much Trade Transits the South China Sea? Retrieved from https://chinapower.csis.org/much-trade-transits-south-china-sea/
9. Freedom of Navigation Program - https://policy.defense.gov/OUSDP-Offices/FON/
10. China’s Anti-Access/Area Denial Strategy Retrieved from https://missilethreat.csis.org/defsys/china-a2ad/
11. Terminal High Altitude Area Defense (THAAD) Retrieved from https://missilethreat.csis.org/system/thaad/
12. Waltz. K.N. (1979) Theory of International Politics. Addison-Wesley Publishing Company.